

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13787481>

UDK: 811.512.133

SIDDIQ MO‘MIN SHE‘RIYATIDA GENDER XUSUSIYATLARNING IFODA ETILISHI

Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
<https://orcid.org/0000-0001-7187-2330>
yuldilaf@mail.ru

Usmonova Ziyodaxon Ilxomjonovna

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchi
<https://orcid.org/0009-0007-4310-9099>
ziyodaxonusmonova7@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bugungi kun zamonaviy tilshunoslikda genderlingvistika alohida bir sohasga aylanmoqda. Lingvopoetik tasdqiqotlarda ham ijod mahsullarining genderologik xususiyatlarini o‘rganish tobora dolzarb tus olmoqda. Ushbu maqolada Siddiq Mo‘min ijodida gender xususiyatlarning ifodalanishi ijodkorning ayollar mavzusida yaratilgan asarlari orqali tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: gender, genderlingvistika genderologik, konsept, lingvomadaniy kod.

ВЫРАЖЕНИЕ ГЕНДЕРНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК В ПОЭЗИИ СИДДИКА МОМИНА

АННОТАЦИЯ

Сегодня гендерная лингвистика становится отдельной областью современной лингвистики. Изучение гендерных характеристик творческих продуктов становится все более актуальным в лингвистических исследованиях. В данной статье выражение гендерных характеристик в творчестве Сиддика Момина анализируется через произведения художника на женскую тему.

Ключевые слова: гендер, гендерлингвистика, гендерологический, концепт, лингвокультурный код.

EXPRESSION OF GENDER CHARACTERISTICS IN SIDDIQ MO‘MIN’S POETRY

ANNOTATION

Today, gender linguistics is becoming a separate field in modern linguistics. The study of the gender characteristics of creative products is becoming more and more relevant in linguistic studies. In this article, the expression of gender characteristics in Siddiq Momin’s work is analyzed through the artist’s works on women.

Key words: gender, genderlinguistics, genderological, concept, linguistic and cultural code.

KIRISH

Taniqli ijodkor Siddiq Mo‘min she‘riyatida ayol va erkak obrazlari parallel qo‘llangan bo‘lib, erkak obrazida ota, aka, o‘g‘il, do‘st-birodar, ustoz, hamsuhbat kabi qiyofalarda aks etsa, ayol – ona, yor, qiz, opa-singil, olima, muhlisa sifatlarida voqelanadi.

Siddiq Mo‘min o‘z asarlarida ayol konseptini ifodalar ekan, bevosita adibning “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” monografiyasida keltirilgan, aynan ma‘lum bir millatgagina xos bo‘lgan muomala madaniyati haqidagi fikrlari e‘tirborimizmi tortadi: “Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter - millat aholisining o‘ziga xos urf-odatlarini, qadriyat va an‘analarini hisobga olmasdan turib o‘rganish mutlaqo mumkin emas. Chunki muloqot xulqi millat xarakterining uzviy bir qismi bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. Milliy xarakter deganda, ma‘lum ijtimoiy guruh o‘rtasida asrlar mobaynida avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘ziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xarakterga mazkur millat aholisi sig‘inadigan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarzi jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi va bu ta‘sir o‘z-o‘zidan muloqot xulqida namoyon bo‘ladi¹.”

Olamning lisoniy manzarasi shu xalq olamni qay tarzda ko‘rishni xohlasa, shunga asoslanadi. Ma‘lumki, o‘zbek xalqi milliy xususiyatlari va qadriyatlarida ayol bu birinchi navbatda umr yo‘ldoshi, turmush o‘rtog‘i munosabatlarini ifodalaydi.

¹ S.Mo‘minov. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Monografiya Farg‘ona -202130-b

Mumtoz adabiyot namunalarida ayol konsepti asosan, “ona”, “sevikli yor”, “dildor”, “janona”, “vafodor”, “dilbar”, “ayyora”, “makkora” kabi ma’no ifodalariga ifodalariga ega.

Kelmadi sentek jahonda dilbari **ayyoraye**,
Nasli odam ichra yo‘q mundoq **pari ruxsoraye**.
Qon to‘kar, el bilmasunlar deb o‘zin to‘g‘ri qilur,
Qo‘rmadi hech kim ko‘zidek joduyi **makkoraye**¹. (Lutfiy)

Kecha kelgumdur debon, ul **sarvi gulro‘** kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.
Lahza-lahza chiqtim-u chektim yo‘lida intizor,
Keldi jon o‘g‘zing‘a-yu ul **sho‘xi badxo‘** kelmadi. (Navoiy)

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Gendershunoslilik asosan g‘arb tilshunoslarining mavzu obyektini bo‘lsa-da, bugunga kunga o‘zbek tilshunoslari va sotsiolingvistlarning ham mavzu doirasiga aylangan. Tilshunoslikdagi zamonaviy gender tadqiqotlarida ayolning tabiati, uning o‘ziga xos xususiyatlari va konseptlarning gender tabiatini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor ko‘plab tadqiqotlarning mavzu obyektiga aylangan. Avvalo, “ayol” konsepti turli madaniyatlarda hamda tillarda turlicha namoyon bo‘ladi. “Tabiat hodisalarining gender yorlig‘i, xususan, folklor asarlarida, birinchi navbatda, “bo‘ri”, “tulki” kabi neytral (giperik) leksemalar jinsga asoslangan ikkilamchi korrelyatsiyalarga qurilgan ertaklarda namoyon bo‘ladi. “Tulki” har doim – “ayol” va “bo‘ri” har doim – “erkak”. Jinsga asoslangan ikkilamchi motivatsiya daraxtlarning nomlariga va butun o‘simlik hayotiga o‘tkaziladi. O‘zbek tilida ayol hamisha gulga qiyoslangan bo‘lsa, erkakka nisbatan esa “chinor” ramziy ma’noda qo‘llanib kelinadi².”

¹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/lutfiy-poetry-devon.html>

² <https://cyberleninka.ru/article/n/ayol-konseptosferasida-gender-munosabatlarining-ifodalanishi>

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shoir Siddiq Mo‘min ijodida ayol konseptining yadrosi *umr yo ‘ldoshi* bo‘lib, uning periferiyalari kerakli inson, hamdard, maslakdosh, vafodor, suhbatdosh, mehnatkash, ma’suma, olima, soddadil kabi ma’no ifodalariga ega.

Ijodkor nutqi ayol konseptiga murojaat qilar ekan, kishi ko‘z ongida o‘zbekona urf-odat va qadriyatlar namoyon bo‘ladi:

Dilda borin aytyapman, Quloq soptur *xotinjon!*

Mashhur bo‘lib ketyapman, Hushyor bo‘ptu *xotinjon!*

“Xotinjon” leksemasi lingvomadaniy qadriyatni ifoda qilib, erkaklarning chapanisiga o‘z ayoliga murojaati sifatida uni erkalash ma’nosini ham ifodalaydi. O‘zbekona madaniyatda o‘z ayolini “onasi”, “xotinjon”, yoshi kattaroq nabira ko‘rganlariga nisbatan “buvisi” kabi murojaat shakllari mavjud. Adibning “Hushyor bo‘ptur xotinjon!” she’rini tahlilga tortadigan bo‘lsak, ayol konseptining gender xususiyatlari tuli lingvomadaniy kodlar orqali ta’sirli ifodalarni namoyon bo‘ladi.

Sirdaryoni bilasan, Aytib bersam kulasan.

Qizlari ekan *asal*, Hushyor bo‘ptur xotinjon!

Qadim shahar Samarqand, Qizlarining tili *qand*.

Til bilmayin yedim pand, Hushyor bo‘ptur xotinjon!

Satrlarda berilgan *asal*, *qand* gastronomik kodlari orqali ayol-qizlarga nisbatan yoqimlilik, erkalash ma’no munosabatlari ifodalanmoqda.

Undan *Namangan* o‘tdik, Qizlari “*motti-mo‘tti*”,

Xuddi ortdan *kelutti*, Hushyor bo‘ptur, xotinjon!

Toshkentda “*votti-votti*” Debon qizlar gap otdi,

Yurak yonib *ketvotti*, Hushyor bo‘ptur, xotinjon!

V.V. Krasnix madaniyat kodlarining asosiy turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod, predmetli kod, bimorf kod hamda ma'naviy kodlarni ta'kidlab o'tgan. Madaniyat kodlari haqida fikr yuritganda ularni lingvomadaniy kodlar bilan aralash qo'llash holatlari uchraydi. Lingvomadaniy kod madaniyat kodining verballashgan ko'rinishidir. Ma'lumki, verbal tilda har qanday narsani ifodalash mumkin. Verbal til o'ziga madaniyatning obrazli kodlarini singdiradi. Bunda kodning ifoda planida o'zgarish sodir bo'ladi va madaniy kodlar verballashib, lingvomadaniy kodga aylanadi.

Konsept yaratishdagi shoir iste'dodining yana bir tarafi shundaki, makoniy kodlar (Namangan, Toshkent)ni lingvomadaniy kodlar (kelutti, ketvotti) bilan aralash qo'llab, uni morfologik hodisa ("mo'tti-mo'tti", "votti-votti") ga bog'lash orqali ayol konseptining sho'x –shaddod qizlar periferiyasini voqelantirgan. Ya'ni ayol nutqiga xos bo'lgan iboralar, jumalar, undov va taqlid so'zlarni ayol konseptini ifodalovchi lisoniy vositalar sifatida shoir misralarida ifodalangan. Zero, "O'zbek tilida ayrim morfologik hodisalar, jumladan, undov va taqlid so'zlar orqali ham "shaxs" konsepti voqelanadi. Xususan, hoy, allo, ey, uf, qoyil, ofarin, balli, tasanno kabi undov so'zlar, qult-qult, qah-qah, shivir-shivir, g'o'ng'irg'o'ng'ir taqlidiy so'zlarining grammatik ma'nosi orqali til egalari lisoniy xotirasida assotsiativ tarzda "shaxs" konsepti tiklanadi. Boshqacha aytganda, ushbu morfologik birliklar inson xotirasida "shaxs" konsepti bilan assotsiativ bog'lanishni hosil qiladi¹."

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, ijodkor asarlarining gender xususiyatlari muloqotda ayollar nutqigagina xos bo'lgan leksemalarning qo'llanishi bilan ham o'zgachalik kasb etadi.

Qoraqalpoq bir qizga, Gap otsam **"qo'ysangiz-a"** –

Deb darrov tushdi izga, Hushyor bo'ptur, xotinjon!²

Sahar turib sigir sog'adi, Uyida qo'y novvos boqadi.

Pardozsiz ham erga yoqadi, **"Voy o'lay"** deydi-yu o'lmaydi³.

¹ <https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5435>

² Siddiq Mo'min Biomaydon. "Farg'ona" nashriyoti, 2022, 89-b

³ Siddiq Mo'min Biomaydon. "Farg'ona" nashriyoti, 2022, 69-b

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijodkorning genderologik xususiyatlarni aks ettiruvchi asarlari aynan, shu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Т.: Фан, 1966
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Boqiyeva G Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent-2005
3. S.Mo‘minov. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Monografiya Farg‘ona -202130-b
4. Siddiq Mo‘min Biomaydon. “Farg‘ona” nashriyoti, 2022, 89-b
5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/lutfiy-poetry-devon.html>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/ayol-konseptosferasida-gender-munosabatlarining-ifodalanishi>
7. <https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg/article/view/5435>